

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

G.Sh.Sadikova

H.B.Abdimuminov

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20120235>

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy iqtisodiyot va biznes jarayonlaridagi o'rni, ularning rivojlanish tendensiyalari hamda amaliy qo'llanish yo'nalishlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellekt asosida biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mashinaviy o'rganish va chuqur o'rganish texnologiyalarining xizmat ko'rsatish, marketing va menejment sohasidagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada sun'iy intellektni joriy etish bilan bog'liq muammolar, xususan, ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik shaffoflik va etik masalalar ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektni iqtisodiyotga integratsiya qilish innovatsion rivojlanishni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, biznes jarayonlari, avtomatlashtirish, mashinaviy o'rganish, chuqur o'rganish, raqobatbardoshlik, innovatsiya, raqamli transformatsiya, marketing texnologiyalari, boshqaruv samaradorligi, ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik shaffoflik.

Sun'iy intellekt bugungi kunda nafaqat ta'lim, iqtisodiyot, tibbiyot, transport, moliya, marketing, menejment, agrar va boshqa sohalarda faol qo'llanilmoqda. Sun'iy intellekt va kompyuter texnologiyalari hozirgi zamon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning qo'llanilishi innovatsion iqtisodiyotga o'tishda, yangi biznes modellari yaratishda, va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalarni tatbiq etish orqali kompaniyalar o'z jarayonlarini tezlashtirishi, xarajatlarni kamaytirishi va mahsulotlarini yaxshilashlari mumkin. Iqtisodiyot va menejment sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi samaradorlikni oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanish imkonini bermoqda. Sun'iy intellekt bugungi biznes olamining ajralmas qismiga aylanmoqda. Texnologiyalar raqobatbardoshlikni oshiradi, jarayonlarni avtomatlashtiradi va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi. Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari korxonalar samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini kuchaytirish, xarajatlarni kamaytirish hamda yangi biznes modellari yaratishda keng qo'llanilmoqda. Sun'iy intellektni iqtisodiyot tarmoqlarida qo'llash ham imkoniyatlar shu bilan birga qiyinchiliklar ham olib keladi. Sun'iy intellekt samaradorlik va samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, u ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmlardagi tarafkashlik va qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflik zarurligi haqida tashvish tug'diradi. Bundan tashqari, sun'iy intellektning iqtisodiy tarmoqlarga qo'shilishi axloqiy va mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash uchun iqtisodchilar, olimlar va siyosatchilar o'rtasida hamkorlikni talab qiladi. Sun'iy intellekt sohasida keng tarqalgan asosiy turlaridan mashina orqali o'rganish va chuqur o'rganishlardan korxonalar faoliyati yuritishda va mijozlar bilan ishlashda keng foydalanilmoqda.

Hozirgi xizmat ko'rsatish sohasining barchasida suniy intellekt tizimlaridan foydalanish asosiy innovatsion faoliyat bo'lib qolmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida sun'iy intellektdan

foydalanish bilan ko'proq strategik qarorlar qabul qilish mumkin. "Chatbot"lardan foydalanish ham ma'lum qulayliklarga olib keladi. Mijozlarga tezroq va aniqroq yordam berishi mumkin shuningdek, mijoz va ularning faoliyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ushbu botlar bir nechta sohalarda muammoni bilib olishi va tezkor tuzatishni taklif qilishi mumkin. Sun'iy intellektni o'z faoliyatiga tezda integratsiya qila oladigan korxonalar sezilarli raqobat ustunligiga ega bo'ladi. Sun'iy intellektni iqtisodiyotga keng joriy etish innovatsion rivojlanishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan algoritmlar va raqamli platformalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, xalqaro ilmiy va texnologik loyihalarda ishtirok etish sun'iy intellektni milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuvini tezlashtiradi.

Sun'iy intellektning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rni va ahamiyati bugungi kunda strategik masala sifatida qaralmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellekt texnologiyalarini milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga joriy etish, mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar sun'iy intellekt sohasiga katta miqdorda investitsiyalar yo'naltirib, iqtisodiyotning yangi raqamli modelini shakllantirmoqda. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida korxonalar nafaqat o'z mahsulotlarini va xizmatlarini rivojlantirishda, balki iste'molchi bilan yanada mustahkam aloqalar o'rnatishda, resurslardan samarali foydalanishda ham katta yutuqlarga erishmoqdalar. Iqtisodiy sohalarda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish vaqt, mablag'larni tejash va masofani qisqartirish, ma'lumotlar bilan samarali ishlash, samaradorlikni oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellektning qo'llanilishi, savdo korxonalari va biznes tizimlarining samaradorligini oshirish, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish, shuningdek, iste'molchilar bilan aloqalarni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt yordamida savdo korxonalari mijozlarga 24/7 xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Misol uchun, chat-botlar va virtual yordamchilar orqali mijozlarning savollariga tezkor javob berish, shuningdek, mijozlarga mos mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish mumkin. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt innovatsion iqtisodiyotning asosiy poydevori sifatida biznes va savdo korxonalari faoliyatini qayta shakllantirmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki yangi biznes imkoniyatlarini yaratish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Sun'iy intellektning biznes sektoridagi ilovalari keng qamrovli bo'lib, turli sohalarda innovatsiyalarni rag'batlantirmoqda. Marketingda sun'iy intellekt mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali yanada aniq reklama strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi, bu esa kompaniyalarga o'z mahsulotlarini maqsadli auditoriyaga samaraliroq yetkazishga yordam beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ular yordamida operatsion xarajatlarni qisqartirish, raqobatbardoshlikni oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va innovatsiyalarni joriy etish mumkin. Ammo bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun davlat tomonidan sun'iy intellekt bo'yicha keng ko'lamli o'quv dasturlarini joriy qilish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish, kichik biznesni raqamli transformatsiyaga tayyorlash zarur. Raqamli iqtisodiyotning kelajagi sun'iy intellekt texnologiyalariga bog'liq. Sun'iy intellekt

yordamida iqtisodiyot yanada samarali, innovatsion va texnologik jihatdan rivojlangan holatga keladi. Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellektning ahamiyati juda katta. U nafaqat ishlab chiqarish va xizmatlarni optimallashtirish, balki yangi biznes modellarini yaratish, ekologiya va xavfsizlikni yaxshilash va innovatsiyalarni rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Sun'iy intellekt global iqtisodiyotning kelajagini shakllantirishda Markaziy rol o'ynashga tayyor. Uning hosildorlikni oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi sanoat tarmoqlarini yaratish salohiyati juda katta. Sun'iy intellektning biznesdagi asosiy maqsadi samaradorlikni oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilashdan iborat. Sun'iy intellekt zamonaviy biznes muhitining ajralmas qismiga aylandi va uning ta'siri barcha sohalarida sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Hozirda dunyo bozorida yetakchi o'rinlarni egallab turgan barcha yirik kompaniyalar o'z biznes faoliyatlariga sun'iy intellektni tadbiiq qilish bilan band. O'zo'zidan boshqariladigan avtomobillar, shaxsiy virtual yordamchilar, aqlli uylar, tibbiy asboblar, turli xil kontentlar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan innovatsion mahsulotlar bo'lib, inson turmush tarzini faravonlashtirish uchun xizmat qiladi, ishlab chiqaruvchilar uchun esa katta hajmdagi daromadni keltiradi. Sun'iy intellekt ga investitsiya qilish, xodimlarning malakasini oshirish va barqaror hamda mas'uliyatli sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish orqali kompaniyalar raqobatbardosh ustunlikka erishishlari va kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashlari mumkin. Sun'iy intellekt nafaqat texnologik inqilob, balki biznesni yuritish uslubini qayta belgilovchi strategik imperativdir. Sun'iy intellekt biznes jarayonlarini o'zgartirishi va samaradorligini oshirishi mumkin bo'lgan kuchli vositadir. O'z faoliyatiga sun'iy intellektni joriy qilish orqali kompaniyalar o'z xizmatlari sifatini sezilarli darajada yaxshilashi, ichki jarayonlarni optimallashtirishi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Yo'nalish	Sun'iy intellekt qo'llanilishi	Natija va afzalliklar
Marketing	Mijoz xatti-harakatlarini tahlil qilish, target reklama	Sotuv hajmi oshadi, reklama samaradorligi ortadi
Menejment	Qaror qabul qilish tizimlari, prognozlash	Tezkor va aniq boshqaruv qarorlari
Moliya	Risklarni baholash, firibgarlikni aniqlash	Moliyaviy xavfsizlik oshadi
Ishlab chiqarish	Avtomatlashtirilgan tizimlar, robotlar	Xarajatlar kamayadi, unumdorlik oshadi
Xizmat ko'rsatish	Chatbotlar, virtual yordamchilar	24/7 xizmat, mijozlar qoniqishi ortadi
Logistika	Marshrut optimallashtirish, smart tracking	Yetkazib berish tezligi oshadi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot va biznes jarayonlariga keng joriy etilishi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tizimlar yordamida ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, strategik qarorlar qabul qilish va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni takomillashtirish imkoniyati kengaymoqda.

Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni samarali qo'llash uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda sun'iy intellektdan foydalanishda etik va

huquqiy me'yorlarni takomillashtirish zarur. Global tajriba shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga integratsiya qilish mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi biznes jarayonlarini tubdan o'zgartirib, yangi iqtisodiy model va innovatsion ekotizimlarning shakllanishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdulloev, A. J. (2023). The role and importance of strategic planning in marketing.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). Raqamlashtirish – mamlakat taraqqiyotining muhim omili. Intellectual Education Technological Solutions and Innovative Digital Tools, 3(27), 113–121.
3. Abdullayeva, H. (2024). Korxonada innovatsion marketingdan foydalanish. Markaziy ilmiy nashrlar (bxdu.uz), 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The importance of digitizing the tax system. European Journal of Business Startups and Open Society, 2(11), 1–5.
5. Giyazova, N. B. (2024). Increasing the efficiency of waste recycling in the economy of our country. Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research, 3(34), 455–461.